

## **ZAMON BILAN BIRGA UYG'ONGAN ZIYOLILAR**

**Usmanova Dinora G'ulomjon qizi**

Tarixda har qanday taraqqiyotga yo'l ochgan kuch — bu ziyolilar sinfidir. Ayniqsa, xalqni johillik va savodsizlikdan chiqarishga urinib, umrini ma'rifat yo'liga bag'ishlagan ziyolilar har doim hurmatga sazovordir. O'zbek tarixida bunday ulug' zotlar — jadidlar hisoblanadi. Ular zamon bilan birga uyg'ongan, millatning yuksalishi uchun bel bog'lagan, el uchun jonini ham ayamagan fidoyi ziyolilar edi.

Jadidchilik harakati XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Dastlab bu harakat XIX asrning 80-yillarida Qirimda paydo bo'lgan bo'lsa, 90-yillariga kelib O'rta Osiyo hududida ham keng tarqaldi. Jadidlar savodsizlik, orqada qolgan ta'lim, xotin-qizlarning o'qimaganligi kabi muammolarning yechimi faqat ilm, madaniyat va ma'rifatda ekanini tushunib yetishgan.

Ular "Taraqqiy", "Shuhrat", "Hurriyat" kabi nashrlar orqali xalqni yangilikka, erkin fikrplashga va ozodlikka chorlaganlar. Behbudiy, Avloniy kabi ziyolilar milliy uyg'onish ruhida asarlar yozib, o'z asarlari orqali jamiyatni tarbiyalashga harakat qilganlar.

Ayniqsa, qiz bolalarining ham ta'lim olishini targ'ib qilishlari juda katta jasorat edi. Bugungi kunga kelib, aynan shu harakatlar natijasida qizlarning ta'limga bo'lgan qiziqishi kuchaygan va o'qimishli xotin-qizlar soni yildan-yilga ortib bormoqda.

Sovet tuzumi kuchaygan sari, jadidlar erkin fikrlaydigan, millatini sevuvchi ziyolilar sifatida xavfli deb topildi. Ularga "xalq dushmani", "millatchi" kabi tuhmatlar qo'yilib, ko'pchiligi hibsga olinib yoki otib tashlandi.

Jadidlar uchun faqat o'z hayoti emas, balki millat kelajagi muhim edi. Bugungi kunda biz — yoshlar, ularning orzularini davom ettiruvchi bo'lishimiz kerak. Tariximizni chuqr o'rganish, madaniyatimizni qadrlash — bu bizning eng oliy burchimizdir.